11th International Conference. September, 10 - November, 30, 2020.
UK, S Yorkshire, Sheffield

«SCIENCE AND PRACTICE: A NEW LEVEL OF INTEGRATION
IN THE MODERN WORLD» • Conference Proceedings

DOI: http://doi.org/10.15350/UK_6/11

*Research Article*

# EFFECTIVE METHODS APPLIED FOR THE ORGANIZATION OF MODERN EDUCATION

*Q.R. Axtamova*[1]

[1]Primary school teacher, school No. 17 in Bukhara city, Bukhara region, Uzbekistan.

DOI: http://doi.org/10.15350/UK_6/11.27

*Abstract*

The article deals with the effective use of interactive methods and technologies in the process of organizing a lesson in primary grades.

*Key words.* Innovative technologies, methodology, technological map, continuing education, primary grade, student, educational process.

Dars - ta'lim-tarbiya jarayoning markazi hisoblanadi. Shuning uchun ham maktabda darsga alohida ahamiyat qaratiladi va o'qituvchining zamon talabiga mos dars o'tishi talab etiladi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallagan bilimlami baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayonida yangicha yondashuvni talab qiladi.

Boshlang'ich ta'lim tizimiga kirib kelayotgan yangilanishlar uning mazmunini, tuzilishini, usullarini qayta ko'rib chiqish, mukammallashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Hozirgi davr o'quvchisi dunyoqarashi keng, erkin fikrlovchi voqelikka to'g'ri baho bera oluvchi, o'tkir zehnli, mustahkam irodali qisqa qilib aytganda, yuksak intellektual kuchga ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun esa ta'lim tizimiga innovatsiyalami ta'sis etish zarur.

O'z o'rnida u innovatsiyalar dars jarayonida turli ijtimoiy-psixologik to'siqlarni yengish uchun shart-sharoit yaratib boradi. innovatsiyalami tatbiq etish jarayonida o'quvchining dunyoqaraslii va ma'naviy-axloqiy sifatlari ham ma'lum darajada shakllanib boradi. Pedagogik texnologiya - ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarini o'zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarini qo'llash, ulaming o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar, texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;

- o'qituvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;

- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilim olishni ta'minlashi;

- o'quvchilarda mustaqil, erkin fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;

- o'quvchilarda o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shartsharoitlarni yaratishi;

- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarini ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tatbiq eta olishi, ta'limning yangi yoi va usullarini

DOI: http://doi.org/10.15350/UK_6/11

izlashi, ilg'or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir.

Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida o'z o'quvchilarini fanga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo'ladi. Buning uchun esa u yangicha ta'lim usullarini yaxshi bilishi kerak.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining barcha komponentlari: ta'lim qonun-qoidalari, mazmuni, metodlari, vositalar va shakllarining o'quvchi va o'qituvchi aqliy salohiyatini kuchaytirishga yo'naltirilgan aniq maqsadlar qo'yilishi hamda ularning to'la bajarilishiga kafolat beradigan, o'ta mukammal ishlab chiqilgan texnologik tizimdir. Innovatsion texnologiyalaming afzallik jihatlaridan biri interfaol metodlar hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar aqliy kamolotini rivojlanib borayotganligi, ularning ilm o'rganishga chanqoqligi, yangiliklarga nisbatan cheksiz qiziqishi va ta'lim mazmuniga talabchanligi, o'qituvchining o'z ustida ishlashini, malakasini tinmasdan oshirib borishini, ongini yanada boyitishini, ta'lim tizimidagi barcha yangiliklardan boxabar boiib borishini talab qiladi. So'nggi yillarda ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, zamonaviy pedagogik -psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta'lim beruvchi tomonidan o'zlashtirilib va qo'llanib borilishi, ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirib yubordi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, interfaol metodlarni qo'llab dars o'tilganda, guruhda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar qolmaydi. Deyarli barcha o'quvchilar dars jarayoniga jalb etilib, ularning darsga qiziqishlari ortadi. O'quvchilarning kelgusida mustaqil bilim olishlariga imkon yaratiladi.

*References*

Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.:O'zbekiston,2O17. B.189.

Avliyakulov N.X. «Zamonaviy o'qitish texnologiyalari» T. 2OO1 yil.

Golish L.V. «Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish» Ekspress qo'llanma T. TASIS, 2OO1 yil. -59 bet.